



2018 yil yanvar-mart oylarida Sirdaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:


- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **959,8 mlrd.so'mni**, o'sish **6,5 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati - **106,7 %**
- Iste'mol tovarlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi - **25,2 %**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **32,0 %**

2018 yilning yanvar-mart oylariida viloyat korxonalari tomonidan 959,8 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 % ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarish tarkibi ko'proq qayta ishlash sanoati korxonalarininigi ulushiga to'g'ri keladi (54,0 foiz). Shu bilan birga sanoat ishlab chiqarishning oshishiga elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va xavoni konditsiyalash sanoati xam munosib xissa qo'shdi (sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 44,9 foiz).

2018 yil yanvar-mart oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

2017 yil



2018 yil



■ Tog` kon sanoati va ochiq konlarni ishslash

■ Ishlab chiqaradigan sanoat

■ Elekt gaz bug` bilan ta'minlash va havoni kondisiyalash

■ Suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizima chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish



Qayta ishlash sanoat

Qayta ishlash sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 518,4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 54,0 % ni) tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida o'sish sur`ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 430,9 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 44,9 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur`ati 12,3 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek 2017 yilning yanvar-mart oylariga nisbatan mahsulotlar ishlab chiqarishning yuqori o'sishi quyidagi faoliyat turlarida kuzatilmokda: farmasevtika mahsulotlari ishlab chiqarish 12,1 % ga va kiyim-kechak mahsulotlar ishlab chiqarish 10,3 % ga oshganligi kuzatildi.




***Yanvar-mart oylarida Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish***

	2017 yil	2018 yil	2017 yil yanvar- martiga nisbatan, %
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna	2,9	3,3	113,5
Paxta tolasi, ming tonna	23,4	21,2	90,3
Aroq – mig litr 100 % spirt	300,7	300,7	100,0
Elektr energiyasi, mlrd kvt/s	4,9	4,8	98,0
Paxta urug'l, ming tonna	38,4	33,7	87,8
Kalava ip, tonna	1187	1166,1	93,2
Sellyuloza, ming kg 90%	429,4	185,1	43,1
Un, ming tonna	8,6	8,9	103,2
Kunjara, ming tonna	13,5	15,6	115,6

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 241,4 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 6,7 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 23,2 % ni tashkil etdi.

2018 yilning yanvar-mart oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



2017 yilning yanvar-mart oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida ooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 52,6 % dan 2018 yilning yanvar-mart oyida 54,8 % ga oshishi kuzatilmoqda.


Yanvar-mart oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Shirin shahri 407,5 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 42,5 % ulushini), Sirdaryo tumani 162,9 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 17,0 % ulushini), Guliston shahri 100,0 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 10,4 % ulushini), Boyovut 60,9 mlrd so`m (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 6,3 % ulushini) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

***2018 yilning yanvar-mart oyida hududlarning
sanoat ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'ati***




Shu bilan birga eng kam ulush Guliston tumani 26,3 mlrd so`m (2,7 %), Mirzaobod tumani 24,5 mlrd so`m (2,6 %) va Xovos tumani 21,9 mlrd so`m (2,3 %) tumanlariga to'g'ri keladi.

2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda axoli jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1174,6 ming so'mni tashkil etib tuman va shaharlarning tabaqalanishi taxlil qilinganda, Shirin shahrida 22026,9 ming so'm, Sirdaryo tumanida 1314,8 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2018 yilning yanvar-mart oylarida hududlarda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, ming so'mda



Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.

2018 yil yanvar-mart oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 307,3 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan (jami sanoat mahsulotlarining 32,0 foizi) yoki 2017 yilning tegishli davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil qilgan.



2018 yil yanvar-martida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi va sur'ati

